



**Samarqand viloyati statistika boshqarmasining korrupsiyaga qarshi  
kurashish bo‘yicha idoraviy komissiyasining navbatdagi seminar yig‘ilishi**

**BAYONI № 5**

2023-yil 16-iyun

Samarqand shahri

**Raislik qiluvchi:**

T.I.Sidikov

Boshqarma boshlig‘ining birinchi  
o‘rinbosari,

**Qatnashdilar:**

Boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosari,  
Viloyat prokururaturasi va Adliya  
boshqarmalari mas’ullari, OAV vakillari,  
Komissiya a’zolari, boshqarma hamda  
shahar va tuman statistika bo‘limi  
xodimlari (ro‘yxat bo‘yicha)

**KUN TARTIBI**

**“Statistika tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan amalga  
oshirilgan ishlar hamda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgarishlar”  
to‘g‘risidagi mavzularni muhokama etish to‘g‘risida.**

(T.Sidikov, M.Salimov, J.Xolmurodov, O.Muhammadiyev, Z.Davronov, OAV vakillari, T.Sidikov)

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan boshqarma boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari T.Sidikov so‘zga chiqib, “Statistika tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan axborot berib o‘tdi.

Ayni paytda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning barcha huquqiy asoslari yaratilganligi va bu borada har birimizdan hushyorlik va mas’uliyatlilik talab etilishi yuzasidan mas’ullarga nisbatan tegishli ko‘rsatma va topshiriqlarni belgilab berdi.

Shuningdek, boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosari M.Salimov so‘zga chiqib, boshqarmada korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan 2023-yilning o‘tgan davri mobaynida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida batafsил ma’lumot berib o‘tdi.

Shundan so‘ng seminar yig‘ilishida viloyat adliya boshqarmasining Huquqiy axborot bo‘yicha Bosh maslahatchisi O.Muhammadiyev o‘z ma’ruzasida mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati hamda O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi to‘g‘risida ham batafsил tushuntirish berdi.

Shuningdek, viloyat prokurururasining Uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i J.Xolmurodov ham so‘zga chiqib, bugungi kunda jamiyatimizning barcha tizimlarini korrupsiya illatidan tozalash lozimligini, shuningdek,

ayni vaqtida barcha soha xodimlarini korrupsiyaviy omillardan qay darajada xabardorligi, ushu korrupsiyaviy illatlarga murosasiz munosabatlarini bildira olishlari, qobiliyatlar, korrupsiyaga qarshi kurashishning nazariy asosi hisoblanishi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda statistik ma’lumotlarning o‘rni beqiyosligi hamda statistik ma’lumotlar korrupsiyaning holatini, xususiyatini, miqyoslarini, o‘zgarishlarini va tendensiyalarini oydinlashtirishda muhim o‘rin tutishi haqida ham batafsil ma’lumot berib o‘tdi.

Mamlakatimizda avvalo aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganligini ma’lumot o‘rnida ta’kidlab o‘tdi.

Yig‘ilish kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

### QAROR QILADI:

1. Boshqarma boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari T.Sidikovning “Statistika tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan bergen axboroti tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosari M.Salimovning 2023-yilning o‘tgan davri mobaynida tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida bergen axboroti tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat prokuraturasining Uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i hamda viloyat adliya boshqarmasining Huquqiy axborot bo‘yicha Bosh maslahatchisi tomonidan berilgan ma’lumotlar tizimda rahbarlik va ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Dasturiy texnik-ta’minot va ma’lumotlarni saqlash markazi (U.Sadirov) va Axborot xizmati (F.Eshonkulov):

boshqarma veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha ma’lumotlarni muntazam ravishda yangilab borish vazifasi topshirlisin.

5. Mazkur yig‘ilish qarorlari ijrosini nazorat qilish boshqarmaning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy komissiyasi a’zolari zimmasiga yuklatilsin.

Komissiya kotibi



X.Xolmo‘minov